



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

QADIMGI DUNYO MAMLAKATLARIDA O'LIM JAZOSINI BELGILASHNING HUQUQIY TASNIFIGA OID AYRIM MASALALAR

Yakubov Husniddin Muxitdinovich

CHDPU, “Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrasi o’qituvchisi

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, kishilik jamiyatida aybdor va jinoyatchilarga jazo chorasini qo‘llash bilan birga, kishilik jamiyatida jinoiy jazo sifatida o‘lim jazosini qo‘llashning maqsadga muvofiqligi bilan bog‘liq muammolar uzoq tarixga borib taqaladi. Bir necha asrlardan beri olimlar, jamoat va siyosat arboblari, faylasuflar, yozuvchilar va fuqarolar o‘rtasida ushbu muammo yuzasidan ko‘plab babs va munozaralar davom etib kelmoqda.

O‘lim jazosi ustidagi munozaralarga tarixiy nuqtai nazardan yondashsak, mazkur jazo turi bilan bog‘liq muammolar atrofidagi tortishuvlar bir necha yuz yilliklar bilan o‘lchanadigan har bir davrda tobora qizg‘in va faol tus olib borganligini ko‘rshimiz mumkin.

Zero, tarixiy manbalar o‘lim jazosi bilan bog‘liq masalalar antik davlatlar davridayoq, ancha keng muhokama qilina boshlanganligi haqida guvohlik beradi. Ko‘plab tarixiy manbalarni diqqat bilan o‘rganar ekanmiz, ularning barchasi o‘lim jazosining jazo turi sifatida ancha qadimdan qo‘llanilib kelinganligi haqida ma’lumot beradi. Aksariyat olimlarning fikricha, o‘lim jazosining kelib chiqish sabablarini insonlarning yoki oilalarning bir-biridan qasos olish odatidan qidirish lozim. Dastlabki davrlarda odamlar o‘rtasida qasos olish odati paydo bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik oila institutining paydo bo‘lishi ushbu funksiyaning oilaga o‘tishiga olib keldi. Lekin qasos olish vazifasi oilada ham ko‘p saqlanib qolmadi. Chunki davlat paydo bo‘lib, o‘lim jazosi faqat davlatning vakolatiga aylandi.

O‘lim jazosi haqidagi dastlabki ma’lumotlar ilk davlatlar haqidagi ma’lumotlar bilan taxminan bir davrga taalluqli. Yuridik ma’noda jazo turi sifatida o‘lim jazosi hokimiyatni institutsializatsiya qilish boshlanishi bilan bir paytda, mustahkamlab qo‘ylgan huquqiy munosabatlar bilan tartibga solinadigan jamiyatga o‘tish vaqtida paydo bo‘ldi. Masalan, yerga qabila oqsoqollarining mulki deb qaralgan kechki neolit va eneolit davriga (miloddan avvalgi X-V ming yilliklar) qadar Tonga orollarida ibridoiy jamoa oddiy a’zolarining o‘ziga tegishli yer maydoni bilan



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

boshqa qabila oqsoqoli tasarrufiga o‘tishga urinishi o‘lim bilan jazolangan. Qabilaviy bo‘linishdan hududiy bo‘linishga o‘tilishi bilan huquq institatlari paydo bo‘la boshladi, sintez qilish, universallashtirishga intilgan huquq normalari vujudga keldi. O‘z-o‘zidan ravshanki, bunda teng ilk davlat tuzilmalarida o‘lim jazosi ayni tarixiy-madaniy makonda (G.Pomerans ta’biri bilan aytganda – ekumenada¹) aybli deb topilgan qilmishlar uchun tayinlanar edi. Aytaylik, bir joyda zodagonlarning mulkiga tajovuz qilish o‘lim bilan jazolangan bo‘lsa, boshqa joyda – ekzogam yoki tabaqaviy nikoh² qoidalarini buzish uchun o‘lim jazosi tayinlangan. Tabiatga ta’sir ko‘rsatish imkonini beruvchi «muqaddas kuchi»ni yo‘qotgan qabila oqsoqollari ham o‘ldirilgan. O‘z oqsoqollarini qattiq hurmat qilgan Shilluki qabilasi (Yuqori Nil) aholisi ham ular muayyan yoshga to‘lganidan so‘ng qariligi tufayli hosilning unumdorligini, mollar tuyog‘i ko‘payishini va qabila a’zolarining salomatligini ta’minlay olmaslidigan qo‘rqib, ularni o‘ldirganlar. Odatda oqsoqol kuchdan qolayotgani haqida qabila a’zolariga birinchi bo‘lib uning xotinlari xabar bergan. Oqsoqol qarigani yoki kuchdan qolganini sezgach, o‘g‘illariga qazo kuni kelganini ma’lum qilgan. Oqsoqolning xohishi esa, tabiiyki, qabila a’zolari uchun qonun hisoblangan.

Davlat-huquqiy munosabatlari vujudga kelishi bilan «talion prinsipi» paydo bo‘lgan. U jazo jinoyatga teng bo‘lishi kerak degan g‘oyani ilgari surgan. Ushbu prinsip omma ongida Qadimgi Ahd³ kitobidan olingan «Qonga qon, jonga jon» iborasi tarzida muhrlangan. Ibtido kitobida bu fikr umumiylar tarzda ifodalangan: «Kimki inson qonini to‘ksa, uning qoni inson qo‘li bilan to‘kilajak, dedi Hudovand». Bu amalda odam o‘ldirish uchun o‘lim jazosining ma’qullanishini anglatadi. To‘g‘ri, ko‘pgina xalqlarda «xun haqi» degan tushuncha ham amal qilgan. Bu o‘ldirilgan odam uchun jon bilan emas, balki pul yoki unga teng miqdorda mol bilan haq to‘lash mumkinligini anglatgan.

Tarixdan qadimgi ilk quidorlik davlatlari miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarda vujudga kelgan Mesopotamiya va Misr hisoblanib, qolgan hududlarda bu tuzum

¹ Ойкумена – Ер юзининг одамлар яшайдиган қисми;

² Экзогамия – ибтидоий жамоа тузуми даврига хос бўлган бир қондош гурух доирасида никоҳларни тақиқловчи тартиб.

³ Қадимги Аҳд – Таврот ва Забурнинг умумий номи;



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

ancha keyin miloddan avvalgi VIII-III asrlarda vujudga kelgan va rivoj topganligi hammamizga ma'lum. Shuni hisobga olib, mazkur davlatlarda o'lim jazosining rivojlanishi va qo'llanilishini ko'rib chiqish yuqoridagilar bilan birga o'lim jazo-sining insoniyat tarixida vujudga kelishi va rivojlanishi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin

Demak, qadimgi davlatlarning jinoyat qonunchiliga nazar tashlaydigan bo'lsak, biz ularning deyarli barchasida ibtidoiy jamoa tuzumining aksariyat qoldiqlari saqlanib qolganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ta'kidlaganimizdek, ularda hali qasos olish odatining izlari saqlanib qolgan edi. Xususan, qadimgi davlatlar-ning jazo tizimida jamoaviy javobgarlik, «qonga qon, jonga jon» tamoyili, sud yuritish ishlarida ordaliya - sinab ko'rish qoidasi amal qilgan. Bu o'rinda shuni ham alohida uqtirib o'tish lozimki, qadimgi davlatlarda qo'llanilgan jazolarning asosiy maqsadi qo'rqtish bo'lgan.

Qadimgi Xitoya jinoyat tushunchasi inson jinoiy irodasining namoyon bo'lishi bilan bog'liq edi. Qadimgi Xitoya jinoyat tushunchasi inson jinoiy irodasining namoyon bo'lishi bilan bog'lanadi. Huquqbuzar shaxsga "pastkash inson" sifatida qaralgan. Uning "pastkashligi" shu bilan belgilanganki, u o'zining halokatli, jinoiy irodasi bilan o'zi yashab turgan, o'zi taalluqli bo'lgan ijtimoiy guruhdag'i, jamiyatdagi, tabiatdagi uyg'unlikni, tartibni va hatto sodir etgan jinoyati xarakteriga qarab butun dunyoni buzib yuborishi mumkin, deb hisoblangan⁴. Bundan tashqari Qadimgi Xitoy jazo tizimida qo'llanilgan jazolar o'zining o'ta shafqatsizligi bilan ajralib turadi.

Qadimgi Xitoya ham o'lim jazosi nihoyatda keng va vahshiyona usullar bilan qo'llanilgan jazo turlaridan biri hisoblangan. Qadimgi Xitoy jinoyat huquqi bo'yicha soliq to'lashdan bosh tortgan shaxslar va piyanistalarga ham o'lim jazosi tayinlangan. Bundan tashqari, siyosiy, davlatga qarshi jinoyatlar uchun nafaqat aybdorning o'zi, balki uning ota-onasi va xotini shajarasi bo'yicha uch avlod qarindosh-urug'lari ham javobgarlikka tortilgan. Xan imperiyasining dastlabki davrida maxsus farmon chiqarilib, unga ko'ra davlatga qarshi jinoyat sodir etgan shaxsning uch avlodni qirg'in qilingan, so'nggi avlodga dastlab tatuirovka yo'li

⁴ Мұхамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва хукуқи тарихи. 1 қисм, Т: "Адолат", 1999. - 176 бет.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

bilan tamg‘a bosilib, burunlari va oyoqlari kesilgan, shundan so‘ng ularni tayoq bilan o‘lguncha urilgan. Ularning boshlarini uzib, suyaklari va go‘shtlari tanalariidan ajratib olinib, bozor maydonlariga osib qo‘yilgan. Qadimgi Xitoyda juda yosh bolalarni va qariyalarni qiynoqqa solib qatl etish hollari ko‘p bo‘lgani haqida ham ayrim ma’lumotlar mavjud. Davlat tuzumiga qarshi fitna va isyonlarda ishtirok etgan shaxslar qaynab turgan suvda yoki gulxanda kuydirilgan. Shu bilan bir qatorda o‘lim jazosining tiriklayin ko‘mish, bo‘laklarga bo‘lish (mahkumni belidan ikkiga bo‘lib tashlash tez-tez qo‘llanilib turilgan) kabi rang-barang ko‘rinishlari mavjud bo‘lgan. Qatl etilgan shaxsning jasadi asosan jamoat joylarida – bozorlarda yoki katta yo‘llarda daraxtga osib qo‘yilgan. Qadimgi Xitoyda o‘lim jazosini ijro etish vaqtisi masalasi ham alohida e’tiborga molikdir. Sababi, Konfutsiy ta’limoti bo‘yicha o‘lim jazosi kuzda yoki qishda ijro etilgan. Gap shundaki, bahorda va yozda, ya’ni ayni tabiat uyg‘onayotgan paytda tirik mavjudotni o‘ldirish tabiat va jamiyatdagi uyg‘unlikning buzilishiga olib kelishi va buning oqibatida suv toshqini, qurg‘oqchilik va boshqa tabiiy ofatlar kelib chiqishi mumkin, deb hisoblangan.

Qadimgi Hindiston davlatida ham jazolar ichida ancha keng qo‘llanilganlaridan biri – bu o‘lim jazosi edi. Qadimgi Hindiston qonunchiligi xususida gapirganda, Manu qonunlariga murojat etamiz. Bu qonunlar braxmanizm⁵ maktablarining biri tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, diniy tus berish maqsadida afsonaviy podsho Manu nomi bilan atalgan. Ushbu qonun 12 ta bob, 2685 ta moddadan iborat bo‘lib, undagi qoidalar ikki misrali she’r tarzida ifodalangan⁶. Manu qonunlarida o‘lim jazosining oddiy va murakkab turlari ajratib ko‘rsatilgan. Oddiy turdag'i o‘lim jazosiga boshini kesish jazosi kirsa, murakkab turdagisiga – qoziqqa o‘tqazish, suvgaga cho‘ktirish, maxsus yog‘ochga bog‘lab gulxanda kuydirish, yoqib yuborish, filning oyoqlari ostiga tashlash kabilar kirgan⁷.

⁵ Брахманизм - Қадимги Ҳиндистон дини; луғатга к.

⁶ Пайзуллаев Қ.П., Салаев Н.С., Бобокелдиев Б.А. Ўлим жазоси: ўтмишда, ҳозирда ва келажақда. “Turon-iqbol”, Тошкент 2005, 26 б.

⁷ Мұхамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва хукуқи тарихи. 1 қисм, Т: “Адолат”, 1999, 148 б.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

Manu qonunlariga muvofiq, davlat va ijtimoiy tuzumga qarshi har qanday suiqasd uchun o‘lim jazosi nazarda tutilgan. Bundan tashqari, Qadimgi Hindiston qonunchiligiga ko‘ra, qasddan odam o‘ldirganlik uchun, er-xotinning har qanday ko‘rinishdagi xiyonati uchun ham, uchinchi marta o‘g‘rilik qilganlar, aslzoda kishilarni, ayniqsa ayollarni o‘g‘irlaganlar ham oliv jazo – o‘lim jazosiga hukm etilganlar.

Qadimgi Mesopotamiya qonunchiligi haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo Xammurapi qonunlari haqida to‘xtalib o‘tish lozim. Zero uning nihoyatda diqqatga sazovor jihatlari borki, buni hech kim inkor qila olmaydi. Xususan, Xammurapi qonunlarida ibridoiy jamoa tuzumiga xos bo‘lgan qasos olish odati haqida hech narsa eslatilmaydi. Qonli qasos olish odati o‘z o‘rnini davlat hokimiyati organlari tomonidan beriladigan jazolarga va jinoyatchining jabrlanuvchiga yoki uning qarindoshlariga to‘laydigan xaqlariga bo‘shatib bergan.⁸ Biroq, shu o‘rinda mazkur qonunda ibridoiy jamoa tuzumining ham ko‘plab qoldiqlari saqlanib qolganligini e’tibordan soqit etmaslik kerak.

Ikkidaryo oralig‘i davlatlarida dastlabki yozuvlar amaldagi qonunlarni o‘zida aks ettirmagan bo‘lsa-da, hukmdorlarning qonunchilik faoliyati yozib qoldirilishiga va e’lon qilinishiga zamin hozirlagan. Bunday harakatdagi qonunlar (ular bizgacha to‘liq yetib kelmagan) qatoriga Ur sulolasining asoschisi (miloddan avvalgi III ming yillikda) podsho Ur-Nammu qonunlari, Isina podsholigi hukmdori Lipid-Ishtar qonunlari, Eshkunna podsholigi (miloddan avvalgi II ming yillik boshi)dagi Bilalam qonunlari, «O‘rta ossur qonunlari» (miloddan avvalgi II ming yillik o‘rtalari) va nihoyat, Mesopotamianing eng muhim huquqiy hujjati, qadimgi davr huquqiy qarashlari va huquq tizimining ulkan yodgorligi – Ikkidaryo oralig‘idagi eng yirik davlat qadimgi Bobil podshosi Xammurapi⁹ qonunlarini kiritish mumkin. 1901-1902 yillarda Jeni Ulyak boshchiligidagi fransuz arxeologik ekspiditsiyasi qadimgi Elam poytaxti Suza shahrini qazish chog‘ida Xammurapi qonunlarining qoldiqlarini topishga musharraf bo‘lgan. Bu qonunlar mixxat yozuvida qora bazalt tosh ustuni sathiga o‘yib yozilgan. Bugungi kunda uning asl nusxasi Parij (Luvr)

⁸ Мухамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва хукуқи тарихи. 1 қисм, Т: “Адолат”, 1999. - 117 б

⁹ Xаммурапи – мил. ав. 1792-50 йилларда ҳукм сурган Бобил подшоси.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

da saqlanmoqda. Xammurapi qonunlari to‘plami 282 ta modda va 3 qismdan iborat. Mazkur qonunlar to‘plami Qadimgi Mesopatamiyada ham o‘lim jazosi ancha keng doiradagi jinoyatlarga nisbatan tatbiq etilganligidan guvohlik beradi. Manbalarda qayd etilishicha, Qadimgi Mesopatamiya qonunlarida o‘ttizdan ortiq holatlarda o‘lim jazosi nazarda tutilgan.

Ushbu fikrimizni Xammurapi qonuni (XQ) ning 1-moddasida belgilangan birovni odam o‘ldirishda yolg‘ondan ayblovchilarga, 3-moddasida belgilangan yolg‘on ko‘rsatma berish oqibatida birov uchun o‘limga mahkum etilish xavfini tug‘dirgan shaxslarga, shuningdek erini o‘ldirgan xotinga nisbatan o‘lim jazosi belgilanganligi bilan isbotlashimiz mumkin. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Xammurapi qonunlarida ehtiyoitsizlik orqasida odam o‘ldirganlik uchun ham o‘lim jazosi nazarda tutilgan. Masalan, omonat imorat qurgan quruvchi mazkur imoratning buzilishi yoki bosib qolishi oqibatida uy egasi o‘lsa, uyni qurgan usta ham o‘limga mahkum etilgan (XQ 229-moddasi); agar imoratning buzilishi yoki bosib qolishi uy egasi o‘g‘lining o‘limiga sabab bo‘lsa, bunday holda quruvchining o‘g‘li ham o‘ldirilgan (XQ 230-moddasi); agar buning natijasida uy egasining quli o‘lsa, usta qul o‘rniga boshqa qul bergen (XQ 231-moddasi).

Xammurapi qonunlarining 14-moddasida shunday deyiladi: «Agar kimda-kim biror insonning yosh o‘g‘lini o‘g‘irlasa, o‘limga mahkum etiladi». Jinoyatchi devorni buzib o‘g‘irlik qilsa, uni jinoyat joyida qatl etib ko‘mib tashlash jazosi (XQ 21-moddasi) tayinlangan, yong‘in paytida o‘g‘irlik qilgan jinoyatchi o‘tga tashlangan (XQ 25-moddasi).

Qonunda yaqin qarindoshlar va tug‘ishganlar o‘rtasidagi aloqalar og‘ir jinoyat sifatida qaralib, qattiq jazolar belgilangan. Masalan, otasi o‘lgan o‘g‘ilning o‘z onasi bilan jinsiy aloqada bo‘lishi o‘ta og‘ir jinoyat hisoblanib, bunda jinoyatchilar yoqib yuborilishi qayd etilgan.

Xammurapi qonunlariga ko‘ra, nullarga quldarlarning xususiy mulki deb qaralgan va ularga nisbatan har qanday tajovuz og‘ir jinoyat hisoblangan. Xususan, Xammurapi qonunlaridan ayrim misollarni keltirib o‘tish mumkin: «Agar birov saroy darvozasidan saroy qulini yoki cho‘risini, shuningdek mushkenuning quli yoki cho‘risini olib chiqsa, o‘limga hukm etiladi» (15-modda); «Agar birov o‘z uyida saroya yoki mushkenuga tegishli qochoq qul yoki cho‘rini yashirsa, uyga



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

qamab qo‘ysa, uy egasi o‘limga hukm etiladi» (16-modda); «Agar qochoq qulni ushlab olgan shaxs uni uyda saqlab tursa-yu, buni shu paytda qul egasi topib olsa, bunday holda qulni uyida ushlab turgan shaxs o‘limga hukm etiladi» (19-modda); «Agar birov boshqa odamga tegishli qulni sartaroshga olib kelib, o‘z qulim deb aldab, quldagi belgini qirdirib tashlatsa, bunday odam o‘limga hukm etiladi; sartarosh «men buni qasddan qilmadim» deb qasam ichib, javobgarlikdan ozod bo‘lishi mumkin» (227-modda); «Qul bilan kimda-kim oldi-sotdi shartnomasi tuzib, undan biror narsa xarid qilsa, o‘lim jazosiga hukm qilinadi» (7-modda); qulning qochishiga yordam bergenlik, uni yashirganlik yoki egasiga qaytarishdan bosh tortganlik ham o‘lim jazosiga loyiq hatti-harakat hisoblangan.

Chek yerlari bilan ta’minlangan jangchilar yurishlarda qatnashish uchun podsho amriga binoan istalgan paytda chaqirib olinishi mumkin va bu holda jangchi darhol etib kelishi shart bo‘lgan. Agar jangchi bundan bosh tortsa yoki o‘z o‘rniga boshqa odamni jo‘natsa ham o‘limga hukm etilgan. Harbiy boshliqlar esa jangchining mulkidan o‘z maqsadlarida foydalanganlik yoki ijaraga bergenlik uchun o‘limga hukm etilganlar. Bobilda o‘g‘rilikda ayblangan shaxs qonunda belgilangan katta miqdordagi jarimani to‘lay olmasa, o‘lim bilan jazolangan.

Qadimgi Misr jinoyat qonunchiligi ham o‘ziga xosdir. Qadimgi Misrda mazkur jazo turi nihoyatda keng amal qilgan, ya’ni ko‘plab jinoyatlar aynan o‘lim bilan jazolangan.

Ijtimoiy va davlat tuzumi asoslariga ozgina bo‘lsa-da suiqasd qilishlik uchun og‘ir jazolar nazarda tutilgan. Masalan, davlatga xiyonat, qo‘zg‘olon ko‘tarish va fitna uyushtirish hollarida faqat aybdorning o‘zi emas, uning onasi, opa-singillari, butun oilasi javobgar bo‘lgan. Bunda isyonchi o‘lim jazosiga mahkum etilib, uning jasadi hamma qatori yerga ko‘milmay, suvga tashlab yuborilgan¹⁰. Bundan tashqari, diniy qoidalarni buzzgan shaxslar ham o‘lim jazosiga sazovor bo‘lganlar. Shu bilan bir qatorda, Qadimgi Misrda qasamxo‘rlik jinoyatlari, odam o‘ldirish va ba’zi hollarda yolg‘on xabar bergenlik uchun ham o‘lim jazosi qo‘llanilgan. Otasini o‘ldirgan farzandning tanasidan go‘shtlari sug‘urib olinib, tikanga yotqizilib, keyin esa yoqib yuborilgan. Qabrni buzib o‘g‘rilik sodir etgan shaxsning quloqlari, burni kesilgan

¹⁰ Мұхамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва ҳуқуқи тарихи. 1 қисм, Тошкент: “Адолат”, 1999. - 72 б.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th December, 2024

va u qoziqqa o‘tqizilgan. O‘lim jazosi asosan o‘tda kuydirish yoki qoziqqa o‘tqizish, boshni kesish, osish, tiriklayin ko‘mish, butga mixlash kabi usullarda ijro etilgan. Yuqori lavozimdagи kishilar o‘limga hukm qilinganida ularga o‘zini o‘zi o‘ldirishga ruxsat berilgan. Bokxoris qonuniga binoan o‘lim jazosi qulga aylantirish jazosi bilan almashtirilishi mumkin bo‘lgan.

O‘lim jazosi jinoiy jazo turi sifatida Antik dunyo davlatlari hisoblanmish Qadimgi Rim, Qadimgi Yunoniston, shuningdek, ellistik davlatlarda ham ancha keng qo‘llanilgan. Antik dunyo davlatlarining barchasida, jumladan Qadimgi Yunonistonda ham jazoning asosiy maqsadi qo‘rqtish va dahshatga solish bo‘lgan. Qadimgi Yunonistonning jazo tizimida xuddi Qadimgi Sharq mamlakatlarida bo‘lgani kabi ibridoiy jamoa tuzumining ba’zi bir qoldiqlari qisman saqlanib qolgan edi. Buni quyidagi misol ham tasdiqlaydi. Qadimgi Yunoniston huquqi normalariga asosan, qotil o‘z xohishiga binoan mamlakatdan chiqib ketish orqali jazodan qutlib qolish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Biroq, qotil qachondir o‘z yurtiga qaytib kelsa, u qonun muhofazasida emas, deb topilgan va qotil o‘ldirgan kishining yaqinlari tomonidan ularning xohishiga ko‘ra qatl qilinishi mumkin bo‘lgan. Agar biror shaxs amaldagi tuzumga qarshi xatti-harakatlar sodir etsa, uning bu harakatlari davlatga xiyonat deb hisoblangan va u o‘lim jazosiga hukm etilgan. Xotinning eriga xiyonati o‘ta axloqsiz va og‘ir jinoyat hisoblanib, Qadimgi Yunoniston jinoyat qonunchiligi bo‘yicha erga xiyonat qilgan xotinini o‘ldirish huquqi berilgan. Shuningdek Qadimgi Yunonistonda xususiy mulk qattiq himoya qilingan. Jumladan, kechasi o‘g‘rilik sodir etgan shaxsni tutib olib o‘ldirish mumkin edi.¹¹ Afinada sharmanda qilish jazosi sifatida atimiya¹² jazosi keng qo‘llanilgan. Ba’zan atimiya fuqaroning huquqlaridan to‘la mahrum etilganligini anglatib, bunday holda u sudga shikoyat bilan murojaat qilish imkoniyatini ham yo‘qotgan va sudsiz, tergovsiz qatl etilgan¹³.

Tarixdan Qadimgi Rim huquqining naqadar yuksak tarzda shakllanib, rivoj topganligi, aksariyat mamlakatlar huquqi uchun andoza bo‘lib xizmat qilganligi barchamizga yaxshi ma’lum. Rim huquqida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan XII

¹¹ Мухамедов Х. Хорижий мамлакатлар давлати ва хукуки тарихи. 1 қисм, Т.: 248 б

¹² Қадимги Афина ва Спартадаги жазо тури.

¹³ Мухамедов Х. Ўша асар. - 249 б.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

jadval qonunlari bo'yicha o'lim jazosi tor doiradagi jinoyatlar uchun nazarda tutilgan bo'lsa-da, lekin amalda juda ko'p jinoyatlar uchun qo'llanilgan. Rim davlati qonunchiligi shu bilan diqqatga sazovorki, Rim jazo tizimida o'lim jazosi qo'llanilshining faolligi asta-sekin pasayib borgan (kechki respublika davri (mil.avv. III-I asrlar) da ushbu jazo umuman qo'lanilmagan bo'lsa, imperatorlik davrida qayta tiklangan) va pirovard natijada Rim fuqarolari uchun badarg'a qilish jazosi bilan almashtirilgan. Rimda o'lim jazosi jinoyatlarning xususiyatiga qarab turli, masalan, suvgaga cho'ktirish, boshni kesish, Torpeya qoyasidan tashlab yuborish, butga tortish, kuydirish, osish va boshqa usullarda ijro etilgan. Qadimgi Rimda qullar ozod kishilarga qaraganda ko'proq qatl etilgan. Milodiy o'ninchidagi qabul qilingan senatus-konsult (senat qarorlari)ga binoan, agar biror qul xo'jayinini o'ladirgan bo'lsa, shu uyda bo'lgan va uning hayotini saqlab qolishga harakat qilmagan barcha qullar ham o'limga hukm etilgan. Ilk imperiya davri (mil. av. 27- yildan milodiy 284- yillargacha bo'lgan davr)da muayyan immunitetga ega bo'lgan shaxslar o'z qarindoshlarini o'ladirsa, o'lim jazosi bilan jazolangan, dominat, ya'ni mutlaq yakkahokimlik davri (milodiy 284-476 yillar)ga kelib esa, to'rt holatda: o't qo'yish, sehr-jodu bilan shug'ullanish, janobi oliylarini haqorat qilish va odam o'ladirish kabi jinoyatlar uchun o'lim jazosi belgilangan. Shu vaqtning o'zida hech qanday imtiyozga ega bo'lmagan shaxslar uchun o'ttiz bir holatda o'lim jazosi nazarda tutilgan edi. Imperatorlikning oxirgi davridagi Rim qonunchiligi o'lim jazosi haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi. Gulxanda kuydirish tariqasidagi o'lim jazosi boshqa qatl usullari, chunonchi: osish, cho'ktirish, yirtqich hayvonlarga edirish, og'ziga eritilgan temir quyish bilan bir qatorda 24 holda nazarda tutiladi. Gotofred keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, boshni tanadan judo etish tariqasidagi o'lim jazosi Feodosiy kodeksida 80 holda qayd etiladi. Berlinlik professor Goltendorfning fikricha, bu sanoq to'liq emas, chunki mazkur kodeksda ko'p uchraydigan «Capitalstrafe» so'zi ham o'lim jazosini anglatadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, qadim zamonlardanoq o'lim jazosining yuridik mohiyati jamiyatdagi umuminsoniy qadriyatlarni himoya qilishning zaruriy chorasi sifatida talqin qilinib kelingan.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th December, 2024

Xalqaro huquq normalariga tayangan holda mamlakatimizda 2008-yilning 1-yanvaridan o‘lim jazosining bekor qilinishi respublikamizda inson huquqlarining demokratik va insonparvarlik tamoyillariga asoslangan islohotlar amalga oshirilganligidan dalolat beradi.

Endilikda mamlakatimizda o‘lim jazosi umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilganligi dunyodagi jinoiy jazolarning eng insonparvar, huquqiy tizimlaridan birini tashkil etdi desak, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1 Мұхамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва хуқуқи тарихи. 1 қисм, Т: “Адолат”, 1999. - 176 бет.
- 2 Браҳманизм - Қадимги Ҳиндистон дини; луғатта қ.
- 3 Пайзуллаев Қ.П., Салаев Н.С., Бобокелдиев Б.А. Ўлим жазоси: ўтмишда, ҳозирда ва келажакда. “Turon-iqbol”, Тошкент 2005, 26 б.
- 4 Мұхамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва хуқуқи тарихи. 1 қисм, Т: “Адолат”, 1999, 148 б.
- 5 Мұхамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва хуқуқи тарихи. 1 қисм, Т: “Адолат”, 1999. - 117 б
- 6 Хаммурапи – мил. ав. 1792-50 йилларда ҳукм сурган Бобил подшоси.
- 7 Мұхамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва хуқуқи тарихи. 1 қисм, Тошкент: “Адолат”, 1999. - 72 б.
- 8 Мұхамедов Ҳ. Хорижий мамлакатлар давлати ва хуқуқи тарихи. 1 қисм, Т.: 248 б
- 9 Қадимги Афина ва Спартадаги жазо тури.
- 10 Мұхамедов Ҳ. Ўша асар. - 249 б.